



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI  
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»  
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Хоразм вилояти

Xorazm viloyati 220100, Urganch shahar, P.Maxmud ko'chasi,46 uy. Tel: +998904387766, E-mail: irada13@inbox.ru, www.ekspertiza.mc.uz [www.mc.uz](http://www.mc.uz)

Holati: Ijobiy

Direktor: Bekchanova Nellya Axatovna

Sana:18-11-2022 yil



**Yig'ma ekspert xulosasi № 76017**

**Obyekt nomi** ««Xorazm viloyati Xonqa tumani «Extirom» MFY hududida mahalla binosini qurish» ishchi loyihasi »

**Buyurtmachi** - Xorazm viloyati hokimligining YaBXIK

**Bosh loyihachi** - «Monolit loyiha qurilish» MChJ

**Litsenziya** 16.06.2020 yil AL-000866-sonli litsenziya

**Moliyalashtirish manbai** - budjet

**Bosh pudratchi** - tanlov savdolari natijasida

**Qurilish turi** yangi

**Murojaat raqami:** № 73200

**1. Loyihalash uchun asos**

1.1. Tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.10.2022 yildagi PQ-408-sonli qarori;

1.3. Xailq Deputatlari Xorazm viloyati kengashining qarori 05.11.2022 yildagi VI-54-151-12-0-K/22-sonli qarori.

1.4. Xorazm viloyati qurilish bosh boshqarmasining 11.11.2022 yildagi 1733-1733223-54415-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.5. Xorazm viloyati qurilish bosh boshqarmasining 16.11.2022 yildagi 59064-sonli xulosasi;

1.6. "Xonqatumangaz" gaz ta'minoti bo'limining 21.05.2022yildagi 46-01/22-sonli ma'lumotnomasi;

1.7. "Xorazm suv ta'minoti" MChJ ning 14.11.2022 yildagi T-430-sonli texnik sharti;

1.8. Xonqa TETKnning 14.11.2022 yildagi 02/04-84-sonli texnik tavsiyasi;

1.9. "Sanoat fuqaro loyiha" XK tomonidan tayyorlangan geologik-qidiruv ishlari.

**2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar**

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «ishchi loyiha» ning elektron yo'naliishda taqdim qilingan loyiha hujjatlari.

### **3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni**

#### 3.1. Qurilish maydonining o'ziga xos xususiyatlari.

Tashqi havo harorati - -19 C.

Normativ shamol bosimi - 38kg/m2.

Normativ qor qatlami vazni - 50kg/m2

Yer relyefi tekis.

Tuproqlar cho'kmaydi.

Zilzilabardoshligi - 7-8ball.

Yong'inga qarshiligi - 2 toifa.

Yernining normativ muzlash chuqurligi - 0,68m.

#### 3.2. Bosh reja.

Loyihalashtirilayotgan ob'ekt Xorazm viloyati Xonqa tumani «Extirom» MFY hududida joylashgan.

Loyihalanayotgan ob'ekt chegaralari: shimol, janub, g'arb va sharq tomondan - turar joylar bilan chegaralangan.

Ushbu xudduda quyidagilar loyihalashtiriladi: MFY binosi qurish, 5m3 xajmdagi oqava suv qudug'i qurish, hududni obodonlashtirish.

Xudud balansi.

Umumiy maydoni	- 200,0m2.
Qurilish maydoni	- 172,5m2
Yo'l va yo'lakchalar maydoni	- 27,5m2

#### 3.3. Asosiy loyihamiy yechimlar.

Loyihalanayotgan MFY binosi 1-qavatli to'rtburchak shaklidan iborat bo`lib, rejadagi oq o'lchamlari 10,8x15,0m. Bino xonasi balandligi po'l sathidan tom yopmasigacha - 3,0m ni tashkil qiladi.

Konstruktiv yechim.

Bino poydyevori - yaxlit temir-betondan, beton markasi M-150.

Devorlar - M-75 markali pishgan g'ishtdan bo'lib, M-50 markali tsement qorishmasidan, devor qalinligi - 380mm.

Tomyopmalar - temir fermalar.

Tom qoplama - profnastil tunuka bilan yopilgan.

Pollar - keramik plita.

Derazalar - plastik profillar.

Eshik - alyumin va temir.

Bino yon atrofi yo'lagi - beton.

Ichki pardozlash. Devorlar – yaxshilangan suvoq, suvli emo'lсия bo'yok bo'yalgan. Shift – tekislangan va yorqin rangdagi suvli emo'lсия bo'yog'i bilan bo'yalgan.

Tashqi pardozlash. Devorlar – issiqlik izolyasiyalovchi bazal't materiali bilan qoplanib, mahsus setka bilan suvoq qilinib travertin bilan suvoqlanadi. Tso`qo`l qismi – plitka bilan qoplash.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.

Qurilish maydoni	- 172,5m <sup>2</sup>
Qurilish hajmi	- 604,0m <sup>3</sup>

### 3.4. Yong'in xavfsizligi.

Ob'yekt xududi o'rالган. Xududga kirish va chiqish yo'llari mavjud. Yo'l va yo'lakchalar betondan bo'lib, o't o'chirish mashinalarini bino va inshootlarga borishi ta'minlangan.

Birlamchi yong'in o'chirish uchun jixozlangan yong'inga qarshi qalqonlar amalga oshiriladi.

Bir vaqtning o'zida yong'inlar soni – 1. Yong'in o'chirish davomiyligi – 3 soat.

### 3.5. Atrof-muhit muxofazasi.

Ob'yekt xududi obodonlashtirilgan va ko'kalamzorlashtirilgan.

Qurilish boshlashdan oldin, unumdar tuproq qatlami kesilib, keyingi melioratsiya uchun ishlatiladi.

Chiqindilarni yig'ish joylari ob'yekt xududida ajratilgan.

Oqava chiqindi suvlari beton quduqqa chiqariladi.

Yer bilan tegib turgan inshootlar, tuproq va yer osti suvlarining agressivligini xisobga olagan xolda izolyatsiyaga ega.

Ob'ektning joriy narxlardagi qiymati O'z.R. qurilish sanoati tomonidan qo'llaniladigan moddiy-texnik resurslarga joriy narxlar katalogi ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha narxlardan foydalangan holda resurs usuli bilan aniqlanadi (Toshkent, 2022 yil 2-chorak). buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan o'rtacha narhlari bayonlari hamda prays-listlarga asosan olinadi.

Buyurtmachining 09.11.2022 yildagi 08/2656-sonli xatiga ko'ra ob'ektning taxminiy narxini aniqlashda quyidagi narx parametrlari qabul qilingan:

- o'rtacha soatlik ish haqi miqdori – 18815,22so'm kishi/soat (shu jumladan, ijtimoiy sug'urta bo'yicha chegirmalar - 12%);
- pudratchining boshqa xarajatlari – 15,51%;
- buyurtmachi boshqa xarajatlari – 20530,700ming.so'm;
- ob'ektni sug'urta qilish xarajatlari - 0,32%;
- tavakkalchilik koeffitsienti – 1,0.

## **4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

Suv ta'minoti va oqava suvlar.

Suv ta'minoti – binoning ichimlik suvi ta'minoti mavjud tashqi suv tarmog'iga ulanishi ko'zda tutilgan.

Suv sarfini o'lchash suv xisoblagichi yordamida amalga oshiriladi.

Ichimlik va oqava suv tarmog'i quvurlari plastik quvurlaridan loyixalashtiriladi.

Oqava suvlari beton quduqqa chiqariladi.

#### Issitish va shamollatish tizimlari.

Issiqlik manbai qilib loqal zamonaviy tipdagи 2-qonturli qozon qabul qilinadi.

Issiqlik yetkazuvchi issiqlik tizimi uchun suvni 90-70S parametrlari bilan isitib beradi.

Shamollatish tizimi mehanik va tabiiy.

#### Elektr jixozlash va yoritish.

Elektr ta'minoti mavjud tashqi elektr tarmog'iga ulanishi ko'zda tutilgan.

Quvvat tarqatuvchi sifatida shitlar xizmat qiladi.

Loyixadagi yoritkich sifatida energiya tejamkor LED yoritkichlari belgilangan.

Elektr jixozlarining metall o'tkazmaydigan barcha qismlari yerga ulanadi.

#### Yong'in-xavfsizlik signalizatsiyasi.

Bino yong'in-xavfsizlik signalizatsiyasi bilan ta'minlangan.

Foyeda yong'in signalizatsiyasi paneli o'rnatilgan.

Loyihada tutun, issiqlik, qo'lда detektorlarni o'rnatish ko'zda tutilgan.

Xar bir xonada kamida ikkita yong'in detektori o'rnatilishi kerak.

Tarmoq devor va shift bo'ylab ikki izolyatsiyali mis sim bilan ta'minlangan.

Yong'in signalizatsiya tizimining elektr jixozlarining elementlari GOST12.2.007.0 talablariga javob berishi kerak.

## **5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

- buyurtmachi bilan;
- Xorazm viloyati qurilish bosh boshqarmasi va Xonqa tumani qurilish bo'limi;
- SEOvaJSX Xonqa tuman bo'limi;
- Xonqa tuman favqulotda vaziyatlar bo'limi;
- Xorazm viloyati Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi;

## **6. Ekspertiza natijalari.**

6.1 Shartnoma bo'yicha import tyexnologik uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar ekspertizadan o'tkazilmaydi.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3 Ekspert tekshiruvi natijalariga ko'ra ob'yeiktning umumiyligi qiymati QQS (qo'shimcha qiymat solig'i) va buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan 600584,511ming.so'm miqdorida e'lon qilingan ishlar qiymati 1647,708ming.so'mga kamaytirilib, 598936,802ming.so'm qilib belgilandi, shu jumladan:

- |                                    |                      |
|------------------------------------|----------------------|
| - qurilish materiallari            | - 1236,447ming.so'm. |
| - pudratchining boshqa xarajatlari | - 191,773ming.so'm.  |
| - qurilish sug'urtasi              | - 4,570ming.so'm.    |
| - QQS                              | - 214,918ming.so'm.  |

6.4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.

6.5. Buyurtmachi loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.6. Gaz taxlili uskunasini o'rnatilishini ta'minlash.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2019 yil 20 sentabrdagi 4464-tonli qaroriga muvofiq buyutmach boshqa harajatlari tarkibiga qurilish qiymatidan 0,05% to'lovi "Shaffof qurilish" MAT hisobiga o'tkazilishi va SHNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydag'i "Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 3-bob 7 p. 9,10,11,12 va 9-bob 4 ustunlarga muvofiq ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflarni bartaraf etilishi va sifatini nazorat qilish (boshang'ich hujjatlarni to'g'riliqini ta'minlashda) mas'uliyati Buyurtmachiga va qabul qilingan loyiha yechimlar, smeta me'yorlariga muvofiqligi mas'uliyati Loyiha muallifiga yuklatilgan.

## 7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda «Xorazm viloyati Xonqa tumani «Extirom» MFY hududida mahalla binosini qurish» ishchi loyihasi ekspertiza natijasida aniqlangan kamchiliklar va takliflar inobatga olgan holda, buyurtmachi qabul qilgan ish hajmi va qiymatni belgilovchi parametrlarning chegaraviy harajatlarga quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga muvofiqligini tasdiqlagan taqdirda ko'rib chiqqan holda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi:

Ko'rsatkichlar nomlanishi	O'Ichov birligi	Miqdori	
		Taqdim etilgan	Tavsiya etilgan
Qurilishning QQSsiz joriy narxi	ming.so'm	504 394,618	502 961,828
Qurilishning QQS bilan joriy narxi (15%)	ming.so'm	580 053,811	578 406,102
Buyurtmachi boshqa xarajatlari (fakt.)	ming.so'm	20 530,700	20 530,700
Qurilishning QQS va buyurtmachi xarajatlari bilan joriy narxi	ming.so'm	600 584,511	598 936,802

7.2. Ko'rsatilgan narx shartnoma tuzish uchun asos emas.

7.3. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli, 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yeqtning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

7.4. Buyurtmachi ekspertizaning izoxlari bo'yicha tuzatilgan loyiha-smeta xujjalari bosh pudratchi tashkilotga o'tkazilishini ta'minlaydi.

**Bosh mutaxassis:** MATYAKUBOV SHIXNAZAR KURAMBAEVICH

**Ishtirokchi ekspertlar:**

RUZMETOVA (BALTAEVA) DILRABO BAXODIROVNA

YULDASHEV MUXAMMETJAN IBROGIMOVICH

OTAJONOV NURMAMAT

KARIMOV UKTAMBEK YUSUPOVICH

SAPAYEVA SANOBAR YEVBASAROVNA

ABDULLAEV RAVSHAN SHARAFXANOVICH